



# AQSH BUDJETIDAGI MUAMMOLARNI IQTISODIY DASTURLAR

## YORDAMIDA BARTARAF ETISH

**Mo'minov Izzatilla Orifjon O'g'li**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*

*Elektron pochta: [mominovizzatilla9@gmail.com](mailto:mominovizzatilla9@gmail.com)*

*Telefon raqami: +998972525710*

**Annotatsiya:** Maqolada AQSH byudjetida kuzatilayotgan defitsiti, davlat qarzining o'sishi va ijtimoiy xarajatlarning oshishi kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Ushbu muammolarni iqtisodiy dasturlar yordamida hal qilish yo'llari: soliq siyosatini yaxshilash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ishsizlikni kamaytirish va davlat xarajatlarini optimallashtirish tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor uzoq muddatli yechimlarga qaratilgan bo'lib, infratuzilma investitsiyalari va soliq tizimi islohotlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, maqola iqtisodiy dasturlar AQSHning moliyaviy holatini barqarorlashtirish uchun takliflar, yangi ish o'rirlari yaratishga va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilashga qanday yordam berishini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** byudjet defitsiti, davlat xarajatlari, davlat qarzi, soliqlar, iqtisodiy barqarorlik, fiskal siyosat

## ADDRESSING THE US BUDGET ISSUES THROUGH ECONOMIC PROGRAMS

**Annotation:** The article examines the budgetary issues in the United States, such as the deficit, growing national debt, and increasing social expenditures. It also analyzes ways to address these issues through economic programs: improving tax policy, stimulating economic growth, reducing unemployment, and optimizing government spending. The focus is on long-term solutions, including infrastructure investments and tax system reforms. As a result, the article highlights how economic programs can help stabilize the financial situation in the U.S., create new jobs, and improve social conditions.



**Keywords:** budget deficit, government spending, public debt, taxes, economic stability, fiscal policy

## РЕШЕНИЕ БЮДЖЕТНЫХ ПРОБЛЕМ США С ПОМОЩЬЮ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОГРАММ

**Аннотация:** В статье рассматриваются проблемы бюджета США, такие как дефицит, рост государственного долга и увеличение социальных расходов. Также анализируются способы решения этих проблем через экономические программы: улучшение налоговой политики, стимулирование экономического роста, сокращение безработицы и оптимизация государственных расходов. Основное внимание уделяется долгосрочным решениям, включая инвестиции в инфраструктуру и реформы налоговой системы. В результате, статья подчеркивает, как экономические программы могут помочь стабилизировать финансовое положение США, создать новые рабочие места и улучшить социальные условия.

**Ключевые слова:** бюджетный дефицит, государственные расходы, государственный долг, налоги, экономическая стабильность, фискальная политика

### KIRISH

Bugungi kunda AQSH iqtisodiyoti o'zining siyosiy beqarorlik va uzoq davom etayotgan byudjet defitsiti davrlarini boshdan kechirmoqda. Bu holat, nafaqat global miqyosda, balki ichki iqtisodiy tizimda ham bir qator muammolarni yuzaga keltirdi. AQSHning budjeti so'nggi bir necha yillardan beri o'sib borayotgan defitsit va davlat qarzining keskin ortishi bilan shug'ullanishda davom etmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy xarajatlar sog'liqni saqlash, ta'lim va pensiya tizimlarida yuzaga kelgan talablar ham davlat moliyasi ustida og'ir yuk yaratmoqda.

Pandemiya, iqtisodiy inqirozlar va global notinchliklar natijasida AQSH hukumatining iqtisodiy siyosatlari va dasturlari uchun jiddiy sinov bo'ldi. Davlatning xarajatlarini samarali boshqarish, yangi soliq siyosatini ishlab chiqish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning ahamiyati yanada oshdi. Aholining turli qatlamlariga



yordam berish va moliyaviy muammolarni hal qilish uchun iqtisodiy dasturlarni qo'llash muhim bo'lib qolmoqda.

Bu maqolada, AQSH budgetidagi muammolarni bartaraf etish uchun kerakli iqtisodiy dasturlar, ularning foydalari va samaradorligi tahlil qilinadi. Byudjetni barqarorlashtirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rnlari yaratish va ijtimoiy farovonlikni oshirishdagi ushbu dasturlarning o'rni ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, soliq islohotlari, infratuzilma investitsiyalari va davlat xarajatlarini optimallashtirish bo'yicha uzoq muddatli va barqaror yechimlar taqdim etiladi. Bugungi kunda AQSHning iqtisodiy va moliyaviy tizimi, boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda, o'zining yuqori darajadagi barqarorlik va innovatsion salohiyatiga ega bo'lsa-da, davlatning moliyaviy holatini yaxshilash uchun yangi va samarali dasturlarni ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Uzoq muddatda iqtisodiy o'sish va jamiyatning farovonligini ta'minlash uchun davlat iqtisodiy siyosatini doimiy ravishda yangilab borishi kerak. Shunday qilib, ushbu maqola AQSH budgeti muammolarini iqtisodiy dasturlar orqali hal qilishda qo'llaniladigan yondoshuvlarning samaradorligini chuqur tahlil qiladi va ularning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatadi.

## ASOSIY QISM

AQSHning budgetidagi eng muhim muammolardan biri - bu o'sib borayotgan defitsit miqdori va davlat qarzining keskin ortishi hisoblanada. So'nggi yillarda, ayniqsa pandemiya va iqtisodiy inqirozlar natijasida, byudjet defitsiti va davlat qarzi keskin oshib, milliy moliya tizimiga katta bosim o'tkazdi. Bu holatning asosiy sabablari sifatida, davlatning ijtimoiy xarajatlari, masalan, sog'liqni saqlash, pensiya tizimlari va boshqa ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga bo'lgan talabning oshishi hamda soliq daromadlarining kamayishi ko'rsatiladi.

AQSH ning byudjet defitsit holati 2001-yildan beri surunkali kuzatilib kelinayotgan bo'lsada, so'ng yillarda defitsit va unga bog'liq muammolarning kun mavzusiga aylanishi 2017-yildan ovoza bo'la boshladi. Xusan, [Bloomberg](#)<sup>1</sup> ma'lumotlariga ko'ra, AQSh byudjeti taqchilligi 2017- moliyaviy yil

<sup>1</sup> "Bloomberg ([www.bloomberg.com](http://www.bloomberg.com)) — bu real vaqtli moliyaviy ma'lumotlar, biznes yangiliklari va iqtisodiy tahlillarni taqdim etuvchi, mutaxassislar va tadqiqotchilar tomonidan keng foydalilaniladigan ishonchli manbadir."



davomida 80 milliard dollarga o'sdi. Tanqislikning o'sishi bu yil xarajatlarning 3 foizga o'sishi bilan bog'liq. Moliya vazirligi buni tibbiyot va ijtimoiy dasturlarga jiddiy sarf-xarajatlar bilan izohladi. Bundan tashqari, Favqulodda vaziyatlarni boshqarish bo'yicha Federal agentlik bir nechta dovul tufayli etkazilgan zarar tufayli ko'p pul so'ragan. AQSh moliya vaziri hozirgi ko'rsatkichlar Vashington ma'muriyati uchun uyg'onish chaqirig'i ekanligini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, soliq islohoti va byudjet mablag'larini sarflash bo'yicha yanada malakali siyosat tufayli vaziyatni tuzatish mumkin.


Shu bilan birga, AQSh Moliya vazirligi ma'muriyatning soliqlarni kamaytirish rejalarini tufayli byudjet taqchilligi 1.5 trln dollargacha o'sishini kutmoqda. Biroq, Respublikachilar partiyasi ushbu chora iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, deb hisoblaydi<sup>2</sup>. Aytish joizki, bu taqchillik moliyaviy yilda AQSh byudjeti taqchilligi 665.7 milliard dollarga etdi, bu so'nggi to'rt yil ichida eng katta ko'rsatkich hisoblangan va 2018-yilda esa bu ko'rsatkich 779 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu o'sishning sabablari odatiy hukumat amalga oshirishi kerak bo'lgan xarajatlardan tashqari turli iqtisodiy, siyosiy va fiskal omillar bilan bog'liq bo'ldi. Xususan, 2017-yilda qabul qilingan soliq islohoti "Tax Cuts and Jobs Act" ya'ni soliq imtiyozlari va ish o'rinalarini yaratish to'g'risidagi qonun<sup>3</sup> va 2018-yilda qabul qilingan "Bipartisan Budget Act" orqali harbiy xarajatlarini oshirganligini keltirish mumkin<sup>4</sup>. 2017-yildagi qonun bilan soliq stavkalari pasaytirildi, ayniqsa korporatsiyalar uchun soliq stavkasi 35% dan 21% gacha tushirildi. Buning natijasida AQSH federal byudjeti uchun daromadlar sezilarli darajada kamaydi. Jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari ham pasaytirildi, bu esa davlatning daromadlarini kamayishiga olib keldi. Ushbu islohotlar, albatta, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirgan bo'lsa-da, budgetning daromadlar qismini qisqartirdi. Shuningdek, AQSHda ijtimoiy ta'minot, "Medicare" va "Medicaid" kabi tizimlarga ajratmalar yildan yilga oshib bormoqda. Bu tizimlarga talabning ortishi, ayniqsa, aholi qarishi va tibbiy xizmatlarga ehtiyojning kuchayishi sababli, federal byudjetga katta bosim o'tkazdi. Ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari va sog'liqni saqlash xarajatlari

<sup>2</sup> [www.rbc.ru](http://www.rbc.ru)

<sup>3</sup> <https://taxpolicycenter.org/briefing-book/how-did-tax-cuts-and-jobs-act-change-business-taxes>

<sup>4</sup> <https://www.csis.org/analysis/making-sense-bipartisan-budget-act-2018-and-what-it-means-defense>

yildan-yilga ko‘payganligi sababli davlat qarzi yanada oshdi va byudjet defitsitini yanada oshirishga olib keldi. Bundan tashqari, davlat qarzining umumiy hajmi oshgan sayin, qarz bo‘yicha to‘lanadigan foizlar ham ortdi. Federal rezervning foiz stavkalarini ko‘tarishi, ayniqsa, davlatning qarzlarini bo‘yicha to‘lovlarni oshirdi. Bu holat, o‘z navbatida, davlatning byudjetiga qo‘srimcha xarajatlarni keltirib chiqardi. Bu tendensiya 2019-yilda ham davom etib, “Tax Cuts and Jobs Act” qonuniga qo‘srimcha ravishda AQSH-Xitoy savdo urishi ham AQSH iqtisodiyotiga katta zarba bo‘lgandi. Buning sababi esa, savdo urishini tashkil etuvchi tariflar ya’ni bojlar hisoblanadi, chunki bojlar iste’molchi uchun qo‘srimcha soliq va ishlab chiqaruvchi uchun ortiqcha xarajatlar va import-eksport qiyinchiliklari hisoblanadi. Bularning natijasida AQSH budjeti tushumlari kamayib, defitsit raqamlari o’sib bordi.



rasm. 2017–2019 yillardagi AQSHning davlat qarzi va byudjet defitsiti<sup>5</sup>

So‘ng, COVID-19 pandemiyasi va undan keyingi global inqirozlar ham AQSH iqtisodiyoti va federal byudjetiga chuqur, keng qamrovli ta’sir ko‘rsatdi. Mamalakatda 2020-yilda boshlangan pandemiya nafaqat sog‘liqni saqlash tizimiga kuchli bosim o’tkazdi, balki mamlakat iqtisodiy faoliyatini ham deyarli to‘xtatdi. Ko‘plab sanoat korxonalari yopildi, xizmat ko‘rsatish sohasi inqirozga yuz tutdi, natijada daromadlar kamaydi va hukumat xarajatlari keskin oshdi. Bu esa oxirgi yetmish yil ichidagi eng yuqori byudjet defisitiga olib keldi va bu ko‘rsatkich garchi 2022-yilda taqriban 2 barobarga qisqargan bo‘lsada, keying yillarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan


<sup>5</sup> <https://fiscaldatal.treasury.gov/>



qolmadi. Federal hukumat pandemiyaga qarshi kurashish, iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish va fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish uchun bir nechta yirik moliyaviy paketlarni ishga tushirdi. Jumladan, 2020-yil 27-martda kuchga kirgan "CARES Act" (Coronavirus Aid, Relief, and Economic Security Act) orqali 2,2 trillion dollar ajratildi<sup>6</sup>. Bu mablag‘lar sog‘liqni saqlash tizimini qo‘llab-quvvatlash, vaksinatsiya ya’ni emlash ishlari, tibbiy yordam, ishsizlik nafaqalari, kichik bizneslarni moliyalashtirish va fuqarolarga bevosita yordam ko‘rsatishga yo‘naltirildi. Bundan tashqari, 2021-yilda "American Rescue Plan" doirasida yana 1,9 trillion dollar ajratilib, pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanishga qaratildi<sup>7</sup>. "Infrastructure Investment and Jobs Act" orqali esa, infratuzilmaga sarmoyalar kiritilib, ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy faollikni tiklash maqsad qilindi.

Ushbu choralar natijasida AQSH federal byudjeti defitsiti keskin oshdi: 2020-yilda defitsit 3,1 trillion dollarni, 2021-yilda esa 2,77 trillion dollarni tashkil etdi. 2022-yilda pandemiyaga qarshi xarajatlar qisqarishi bilan defitsit 1,4 trillion dollarga tushdi. Biroq 2023 va 2024-yillarda davlat xarajatlarining ko‘pligi, ayniqsa ijtimoiy dasturlar va qarz bo‘yicha foiz to‘lovlaring oshishi sababli defitsit yana ko‘paydi. 2024-yilda u 1,7 trillion dollardan oshdi va 2025-yilda ham shunga yaqin bo‘lishi prognoz qilinmoqda va davlat qarzi ham yuqori sur’atda o‘sdi: 2020-yil oxirida 27 trillion dollarni tashkil qilgan qarz miqdori 2023-yilga kelib 33 trillion dollardan oshdi va 2025-yilga borib 35 trillion dollar atrofida bo‘lishi kutilmoqda.

<sup>6</sup> <https://trumpwhitehouse.archives.gov/briefings-statements/remarks-president-trump-signing-h-r-748-cares-act/>  
<sup>7</sup> <https://www.budget.senate.gov/download/american-rescue-plan-act-summary-updated>



rasm. 2017–2025 yillardagi AQSHning davlat qarzi va byudjet defitsiti<sup>8</sup>.(2025\*- 6 oylik moliya yili bo'yicha)

Yuqorida aytilgan ko'rsatkichlarga mos ravishda, 2020-yil aprelida ishsizlik darajasi 14,8% ga yetib, bu Ikkinchı Jahon urushidan keyingi eng yuqori ko'rsatkich bo'ldi. Keyingi yillarda iqtisodiyot tiklana boshladi, biroq 2021–2022 yillarda global ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar, energiya narxlarining oshishi va boshqa omillar inflyatsiyani kuchaytirdi. 2022-yilda inflyatsiya darajasi 9% ga yaqinlashdi — bu oxirgi 40 yildagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Shuningdek, Ukrainianadagi urush, Yaqin Sharqdagi keskinliklar, Xitoy bilan savdo aloqalaridagi noaniqliklar va bank sektoridagi muammolar AQSH byudjetiga qo'shimcha bosim keltirdi. Federal Rezerv tizimi foiz stavkalarini oshirishga majbur bo'ldi, bu esa davlat qarzi bo'yicha foiz to'lovlarining yanada ortishiga sabab bo'lib kelmoqda.

Hozirgi kundagi "Amerika First" yoki, aytish mumkinki, AQSHning 2025-yilda saylangan Donald J. Trumpning ikkinchi muddatidagi islohotlari ham amerikaning kelajakdagi ba'zi maqsadlariga tahdid solibgina qo'ymay, qisqa muddatda ham o'z ta'sirini quyi va o'rta sinf vakillariga o'tkazmoqda<sup>9</sup>. Jumladan, Shu islohotlardan bir bo'lgan regressiv siyosat esa – tariflardir. Tariflar, aytib o'tilganidek,

<sup>8</sup> <https://fiscaldata.treasury.gov/>

<sup>9</sup> <https://www.cookenwealth.com/blog/82-trump-s-second-term-how-proposed-policies-could-impact-your-financial-future.html>



iste'molchilar uchun qo'shimcha soliqdir. Tanqid ostidagi bu islohot aholi iste'molini qisqarishiga sabab bo'ladi, bu esa ishlab chiqarishda o'z aksini topadi. Moliyaviy jihatdan ham bojxona tariflari qisqa muddatda byudjetga qo'shimcha tushum bo'lsada, umumiyligi iqtisodiy pasayish sababli soliqlar tushumi kamaydi, narxlar oshadi va inflyatsion bosim kuchayadi. Xitoy tomoni ham javoban tariflar joriy qilganligi sababli, AQSH eksportchilari yirik bozorlardan ayrilishi mumkin, shuningdek, bu holat minglab ish o'rirlari yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bojxona siyosatining salbiy iqtisodiy oqibatlari federal darajadagi iqtisodiy yordam paketlariga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi va bu aksariyat holatlarda, byudjet defitsitining o'sishiga zamin yaratadi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR:** Uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun har bir davlat, jumladan AQSH ham, puxta rejalashtirilgan strategiyalar asosida harakat qilishi muhim. Bunday strategiyalar ichida innovatsion yondashuvlar, fiskal intizom va makroiqtisodiy barqarorlik asosiy o'rin tutadi. AQSH uzoq muddatli o'sishni rag'batlantirish uchun soliq-budget siyosatida muvozanatni saqlashga, tadbirkorlik muhitini yaxshilashga va raqobatbardosh infratuzilmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib keladi va hozir bu siyosatni mustahkamlashi kun mavzusi hisoblandi va har qanday tarixda qilingan xatolarni o'z tanasida qayta sinab ko'rishi kerak emas ya'ni AQSH iqtisodiyotiga va pul oqimiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatayotgan joriy bojlar siyosatiga, turli-xil ma'muriy xarajatlarga sabab bo'luvchi o'zgartirishlarga va jahonda yuz berayotgan geosiyosiy vaziyatlarga o'zining siyosiy va iqtisodiy intervensiyasiga barham berishi zarur.

Bundan tashqari, AQSHdagi barqaror iqtisodiy holatni qayta tiklash uchun samarali iqtisodiy va siyosiy o'yin-qoidalarin joriy etishi zarur. Bu yo'lda, Soliq tizimi — davlatning iqtisodiy siyosatida eng muhim vositalardan biri bo'lib, uni samarali boshqarish orqali byudjet barqarorligini ta'minlashda asosiy rollardan birini egallaydi. AQSH bu borada soliqlarni soddallashtirish, soliq bazasini kengaytirish va firibgarlikka qarshi kurashni kuchaytirish yo'llari orqali ijobjiy natijalarga erishi mumkin. Soliq islohotlari orqali nafaqat davlat daromadlari ortadi, balki iqtisodiy faoliy ham kuchayadi. Shuningdek, yaratuvchanlik boshqarayotgan hozirgi dunyoda innovatsion sharoitdagi infratuzilma rivojlanishi esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning



harakatlantiruvchi kuchidir. Transport, energetika, telekommunikatsiya sohalariga investitsiyalar kiritish orqali nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki hududlararo iqtisodiy bog‘liqlik ham ortadi. Bunday yondashuvlar iqtisodiy faollikni rag‘batlantirib, yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi va shu yo‘sinda o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, startaplar uchun soddalashtirilgan kreditlar ajratish hamda texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida islohotlarni jadallashtirish orqali inson kapitalini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Aytish kerakki, Qonun chiqaruvchi organ va ijro hokimiyati migratsiya siyosatini qayta ko’rib chiqishi va ba’zi AQSH hududida yashab, qonuniy ish faoliyati olib borayotgan residentlarnini “deport” ya’ni mamlakat hududidan chiqarib yuborish holatlariga e’tiborli bo’lishi zarur. Bundan tashqari, “Green Card” lotereyasi kvotalarini kengaytirib, tanlov asosida qabul qilayotgan aholi miqdorini normallashtirib turishi va sohalar uchun kerakli kadrlarni tayyorlab chiqarishi muhim hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN MANBALAR:**

1. <https://fiscaldata.treasury.gov/americas-finance-guide/national-deficit>
2. <https://fiscaldata.treasury.gov/americas-finance-guide/national-debt/>
3. <https://www.cbo.gov/>
4. <https://www.usgovernmentspending.com/>
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/United\\_States\\_federal\\_budget](https://en.wikipedia.org/wiki/United_States_federal_budget)